

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MAQOLALARIDA IJTIMOYIY FIKRLAR

Mustafoyeva Nafisa

O‘rinova Komila

JDPU o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Mahmudxo‘ja Behbudiyning davr muommolari haqidagi qarashlari hali-hanuz muhim va o‘rinlidir. O‘zbekning qon-qoniga singib ketgan zararli udumlari va odatlari o‘sha davr ziyolisi bo‘lgan Behbudiy tomonidan qoralangan. O‘z davrining noyob iste‘dod egasi bu xususida ko‘plab mushohada qilgan, jamiyatni yorug‘likka yetaklagan.*

Kalit so‘zlar: *ma‘rifatparvar, illatlar, yahudiylar, ijtimoiy muommolar.*

KIRISH

Bugungi kunda Behbudiy tabiri bilan aytganda "bizni kemiruvchi illatlar" hali yo‘qolgani yo‘q va yo‘qotishga harakat ham bo‘lgani yo‘q chamamda. Behbudiyning "Ehtiyoji millat", "Millatni qanday taraqqiy etarlar", " Bizni kemiruvchi illatlar" maqolalarida millatimizni uyg‘otishga chaqiradigan yorqin fikrlar, jarlikdan asrab qoluvchi qudratli kuch tasvirlangan.

Asosiy qism: Buyuk ma‘rifatparvar, jadidlar harakatining namoyondasi Maxmudxo‘ja Behbudiy alloma, yozuvchi, jamoat arbobi va o‘zbek dramaturgiyasi asoschisi. Jadidchilik harakati, ya‘ni yangicha o‘quv metodikasi lideri. Mahmudxo‘janing otasi islom dinining yirik mutaxassisi bo‘lgan, ya‘ni oilasida diniy bilim yaxshi shakllangan hamda shu sababli dinga oid qator maqolalar yozgan, ilmiy ishlar olib borgan. Behbudiy maqolasida keltirilgan "Bizni inqirozga va tahlikaga, jahannamga yumalataturg‘on to‘y, azo ismindagi ikki qattol dushman" [1]jumllarini yozganda naqadar haqli edi. "Yo‘q bo‘lishimizga sabab bo‘ladigan to‘y va aza uchun bor-u yo‘g‘imizni sarf etamiz" xalqimizdagi bu qusurla avval ham dolzarb mavzu bo‘lgan va bugun ham muhimligini yo‘qotmadi. "To‘ylar to‘ylarga ulansin" yosh go‘dakning qalbiday sodda xalqimda shunday ibora bor. Bu yaxshi tilak va ezgu niyat, ammo shu bir kunlik to‘yni deb yillar davomida peshona terimiz bilan topgan va yig‘ganlarimizni sovurmayapmizmikan. "Yahudiylar o‘likni kechki payt ko‘mishadi. Nimaga? Kunduzi ishdan qolib ketmasliklari uchun".[2] Biz esa o‘lib ketgan insonni go‘yoki qadrlaganday vafot etganidan so‘ng marhumga atab turli tadbir va "ziyofat"lar beramiz. Narigi dunyoda shu marhumga qilingan "ziyofat"larni savobi tegadimi yoki aksimi? Dinimizda keltirilishicha aza uch kun bo‘lishi kerak. Uch kun marhum yoki marhumaning uyiga



taziyaga boriladi. Chunonchi, Rasuli akram (sollallohu alayhi vasallam) bir hadisi shariflarida marhamat qiladilarki: "Har bir musulmonning zimmasida ikkinchi musulmon birodariga nisbatan oltita burchi bordir: uchrashganda salom berish, mehmonga chaqirsa borish, maslahat so'rasa yaxshi maslahat berish, aksirib hamd aytsa unga duo bilan javob qaytarish, betob bo'lib qolsa ko'rgani borish va vafot etsa janoza va dafnida qatnashish". [3] Mo'min birodarlar og'ir kunda bir-biridan hol-ahvol so'rashlik yaxshi, ammo hozirgi kunda payshanbalik, yakshanbalik deya ataluvchi "ziyofat"lar juda rasm bo'lgan. Vaholangki, bunday urf-odatlar 19-asrda ham bo'lgan.

"Bizni qiladurg'on aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, xatna, bu ikki balo shundoq qattiq bir ilkatki, o'lmaguncha qutilib bo'lmaydur". [4] Har zamonning boylariga o'zlariga va obro'lariga yarasha to'y qilgan. Mehnatkash dehqonlarimiz esa sodda va ixcham. Ba'zida "meni sendan nima kamim bor" deya insonlar bir-birining ustidan yurib ketmoqdalar go'yo. Eng xunugi nima bilasizmi? "Odamlar nima derkan?" deb yashashimiz. "Xalqqa katta osh bermasam, odamlar gapiradi, axir, bitta-yu bitta o'g'lim bor", "Taziyadan keyin katta qilib dasturxon yozishim kerak, odamlar otasini izzat-ikrom qilolmadi demaydimi?" deya odamlarni gapi uchun qilishimiz to'g'rimikan. Bir boy bir to'yi uchun sovurgan pulini, kambag'al tushida ko'rishni orzu qiladi. Boy kasal bo'lsa, kerak bo'lsa chet elda davolanadi, kambag'al kasal bo'lsa...

Behbudiy bizni aqlsizligimiz, isrofgarchiligimiz dinimizga putur yetkiziyotganini, kerak va keraksiz udumlarimiz uchun sarf bo'lyotgan pullarni maktab va madrasa yoki masjid uchun yo'naltirsak, eng foydalisi shu yo'l ekanligini aytib o'tadi. Har zamonda ham ta'lim olish moliyaviy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan. Behbudiy zamonida puli yo'q kambag'al madrasada ta'lim olmagani yoki umuman savod chiqarolmagan bo'lsa, hozirgi kunda moddiyati yetmagan oddiy dehqon farzandini shaharda universitetda o'qitilmaydi.

Xulosa: Biz ham Behbudiy kabi boylarga shuni aytmoqchimizki, institutga kirishga bilimi yetadigan, iste'dodli ammo moddiyati to'g'ri kelmaydigan qanchadan qancha yosh ilmlilarimiz bor. Ularning kelajagiga to'g'ri baho bermaslik, ulkan xato bo'ladi deb o'ylayman. Zero, ilmi va bilimni kishilardan hech qachon yomonlik chiqmagay.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 3-nashri. "Ma'naviyat" 2006; 217-B
 2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. "Bizni kemiruvchi illatlar" maqolasi. "Oyna" jurnali 1915; 338-B
 3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. "Ehtiyoji millat"maqolasi. "Samarqand" 1913; 338-B
- 2.<https://kun.uz> sayti

